

**OLIY TA’LIM TABIIY ANIQ FANLAR TIZIMIDA STEAM TA’LIM  
TEXNOLOGIYASI ASOSIDA KASBGA YO’NALTIRISHNING PEDAGOGIK  
ASOSLARI**

*Xodjamberdiev M.S.  
Andijan davlat universiteti dotsenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tabiiy aniqfanlar tizimida STEAM ta’lim texnologiyasi asosida kasbga yo’naltirishning pedagogik asoslari keltirilgan.

**Annotation:** This work is devoted to the topic of pedagogy teaching methodology based on modern approaches with an emphasis on the profession, in which the theoretical issues of vocational guidance based on STEAM technology were studied.

**Kalit so’zlar:** Ta’lim texnologiyasi, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim, fanlar integratsiyasi, fanlararo o’zaro bog’lanish, STEAM ta’lim texnologiyasi, kasbga yo’naltirish, texnolog-muxandislik tafakkur,

**Key words:** Technology, educational technology, educational method, STEAM educational technology, person-oriented education, career orientation.

Dunyo mamlakatlarining globallashuvi jarayoni jadal sur’atlar bilan davom etayotgan XXI asrning birinchi choragida mamlakatimizning jaxon hamjamiyatiga integrashuvi jarayoni milliy ta’lim tizimimiz oldiga qator dolzarb masalalarni qo’ymoqda.

XXI asr uchun oliy ta’lim haqidagi butun jahon deklaratsiyasida ta’kidlanganidek: “...malakali va keng ma’lumotli insonlarning kritik massasini barpo qiluvchi adekvat oliy ta’limga va ilmiy tekshirish muassasalariga ega bo’lmay turib birorta mamlakat real va barqaror rivojlanishni ta’minlay olmaydi...” [1].

“...XXI asr sivilizatsiyasiga yo’l boshlovchi ilmiy-texnika jarayoni kimda kim o’zining intellektual imkoniyatlarini tahlil qilish, sintezlash, baholash, shuningdek moslanuvchan aqliy va ijodiy qobiliyatlarini boshqalarga nisbatan yaxshi rivojlantira olsa o’shanga ish va mansab in’om etadi - bu deyarli 30 yil avval yozilgan bashoratli firkmulohazalar zamonaviy mutaxassislar tayyorlashga qo’yilayotgan talablarni juda aniq belgilab beradi [2].

Yuqoridagi fikr-mulohozolardan kelib chiqib, ushbu maqolada Oliy ta’lim tabiiy aniq fanlar yo’nalishi talabalariga zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan biri bo’lgan STEAM texnologiyasi asosida, fan, ta’lim, ishlab chiqarish uzviylikini hisobga olib, fizika fani mazmun-mohiyatini fan, texnologiya, muxandislik san’at va matematika fanlari integratsiyasini hisobga olib, faoliyatli yondoshuv - kasbga yo’naltirish asosida, kelgusida egallanadigan kasblari uchun yaxlit, tizimlashtirilgan bilimlar berishning pedagogik asoslari keltirilgan.

Fanlar integratsiyasi, ya’ni fanlararo o’zaro bog’lanishni didaktik shart-sharoit deb hisoblanib, u to’g’ri qo’yilganda nafaqat o’quv jarayonini to’g’ri tizimlashga va o’quvchi-talabalarlar tomonidan o’zlashtirgan bilimlarni mustahkamligini oshiradi, talabalarni o’qishga qiziqishlari, nazariyalar, ilmiy tushunchalari bilan munosabatda bo’lishligini ta’minlaydi. Natijada bilimlar nafaqat oydinlashadi, umumlashadi va ularni amaliyotda qo’llashga imkon yaratadi [3].

STEAM-ta’lim texnologiyasi bo’yicha adabiyotlarni tahlili shuni ko’rsatadiki, ushbu ta’lim texnologiyasi fanlar integratsiyasini inobatga olgan holda texnolog-muxandislik tafakkuri asosida o’zlashtirilgan nazariy bilim, egallangan ko’nikma, malakalar hamda kompetentsiyalar hayot bilan, amaliyot bilan, ishlab chiqarish bilan

spiralsimon usulda oddiydan murakkabga tomon rivojlantirilib borishligi nazarda tutilganligi hisobiga, o‘q o‘quvchilarga bizni o‘rab olgan, doimo harakatda bo‘lgan mikro va makro olamni yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglab, fahmlab, tushunishga yordam beradi[4,5].

STEAM ta’lim texnologiyasi asosida amaliy mashg‘ulotni tashkil etish metodikasi quyidagilardan iborat:

Talabalar STEAM ta’lim texnologiyasi sharti bo‘yicha, ularning o‘quv-biluv faoliyatlarining rivojlanish darajasi, qobiliyatlariga bog‘liq ravishda 5 ta guruhga bo‘linadilar :

- 1-guruh – Science- nazariyotchilar guruhi;
- 2- guruh – Technology -texnologlar guruhi;
- 3- guruh – Engineering –muhandislar guruhi;
- 4- guruh – Art- san'atchilar guruhi;
- 5- guruh – Mathematics-matematiklar guruhi.

Guruhlarga bo‘lingan talabalarga N'yuton qonunlarining nazariy masalalari, ularning hayotda, amaliyoda va ishlab chiqarishda qo‘llanilishi, matematik formulasi hamda chizmalar asosida tasvirlash bo‘yicha vazifa topshiriladi.

Ularga ma’lum vaqt beriladi, keyin berilgan vaqt tugagach har bir guruhning ushbu mavzu bo‘yicha qarorlari, fikr-mulo‘hazalari tinglanadi va ularni oldindan tayyorlab qo‘yilgan jadvalga yozishlari kerakligi topshiriladi va o‘qituvchi tomonidan umumiy xulosa chiqariladi.

Kichik guruhlar uslubida mashqulot olib borilganda quyidagilarga erishiladi:

- har bir talabani faol ishtiroki ta’minlanadi va ularning faoliyatini nazorat qilish va baholash imkoniyati ortadi;

- muammoni tez hal etish usuli ta’minlanadi, talabalar qisqa vaqt ichida ko‘plab yangi g‘oyalar ijodkori bo‘lishadi;

- mashg‘ulotning istalgan vaqtida talabalarining qiziqishini ortirish va butun katta guruh bo‘yicha muhokama qilish imkoniyati ta’minlanadi;

- ayrim talabalar o‘zlarining mavzuga oid ushbu muammo bo‘yicha shaxsiy fikrlarini o‘qituvchiga aytishdan tortinishadi, kichik guruhlarda esa ular guruhdoshlari bilan erkin fikr almashishadi, ya’ni mashqulotda faol ishtirok etishadi.

Kichik guruhlarda mashg‘ulot olib borish rejasini tuzish.

1. Mashg‘ulot rejasini tuziladi, kichik guruhlarda ishlash mashg‘ulotning qaysi vaqtida boshlanishi belgilanadi.

2. Guruhlar o‘z sardorini saylashadi. Buning uchun alohida vaqt berish shart emas.

3. Kichik guruhlarda ishlash uchun mavzuga oid muammoli savol yoki masala tanlanadi. Savolning maqsadi va vazifasi talabalarga aniqtushuntiriladi.

3. Muammo ustida ishlash uchun vaqt belgilanadi. Odatda, 15-20 minut har qanday mavzu ichidagi masala ustida qaror qabul qilishga etarli hisoblanadi.

4. Guruhlarga mavjud o‘quv-uslubiy, o‘quv-vizual materiallardan foydalanish imkoniyati ham berilishi mumkin.

5. O‘qituvchi auditoriyada shovqin bo‘lishiga, ayrim talabalarni passiv ishtirokchi bo‘lib qolishiga yo‘l qo‘yilmaydi, guruhlar faoliyatini nazorat qilib, ularning fikrlarini o‘rganib boradi.

6. Guruh sardorlari mavzu bo‘yicha Guruhning umumiy fikrini prezentatsiya shaklida himoya qiladi. Prezentatsiya uchun odatda 10 minutdan ortiq vaqt berish tavsiya etilmaydi.

7. Prezentatsiya tugagach, bahs-munozara uchun vaqt ajratiladi, o‘qituvchi muammoni umumiy tahlil qiladi, Guruhlar faoliyatiga baho beradi.

“Dinamika” modulining Nyutonning birinchi qonuni mavzuini STEAM ta’lim texnologiyasi asosida o‘qitish texnologiyasi.

Nyuton tajriba va kuzatishlarga asoslanib, jismlarning kanday holda nisbiy tinchlikda va qanday xolda to‘g‘ri chiziqli tekis harakatda bo‘lishini aniqlab birinchi qonunini kashf etadi.

Jismlar o‘zlarining tinch holatini yoki to‘g‘ri chiziqli tekis harakatini saqlash qobiliyati inertsia deyiladi. Inertsia materiyaning eng umumiy xususiyatlaridan biridir. Barcha jismlar, ular qaerda bo‘lishidan qat’iy nazar inertsiyaga ega bo‘ladilar. Nyutonning birinchi qonuni inertsia qonuni deb ham yuritiladi.

Inertsianing namoyon bo‘lishiga biz hamma vakt duch kelamiz. Masalan, xarakatlanayotgan vagonning tezligi birdan o‘zgarganida yo‘lovchilar o‘zlarining dastlabki holatlarini saqlagan holda, agar tezlik kamaysa — oldinga, tezlik ortsa — orqaga og‘adilar. Tez borayotgan ot birdan to‘xtab qolsa, chavandoz o‘z harakatini davom ettirib otning boshidan oshib tushadi. Inertsia tufayli jismning tezligini birdan o‘zgartarib bo‘lmaydi, buning uchun ma’lum muddat kerak bo‘ladi.

Nyutonning birinchi qonuni bo‘yicha o‘quvchilarning STEAM ta’lim texnologiyasi asosida guruhlarda ishlashlari natijalarini ifodalovchi jadval

1-Guruh.Science-nazariyotchilar guruhi.

Inertsia –materiyaning eng umumiy xususiyatini ifodasi bo‘lib, uning doimiy ravishda xarakatda ekanligini ifodalaydi. Agar jismga tashqaridan kuch ta’sir qilmasa, u yo‘nalishiva kattaligi jihatdan o‘zgarimas tezlik bilan harakat qiladi.Jism harakatini to‘htatsa u avvalgi harakat holatini davom ettiradi. Agar jism tinch holatda turgan bo‘lsa uning harakat tezligi nolga teng bo‘ladi. Bulardan Nyutonning birinchi qonunini quyidagicha ta’riflash mumkinligini anglab etadilar: agar jismga boshqa jismlar ta’sir qilmasa yoki unga ta’sir qiluvchi kuchlarning teng ta’sir etuvchisi nolga teng bo‘lsa u o‘zining tinch holatini yoki to‘g‘ri chiziqli tekis harakatini saqlaydi.

2-Guruh. Technology-texnologlar guruhi.

a) Harakatlanayotgan poezd vagonining tezligi birdan o‘garganda o‘zlarining dastlabki holatlarini saqlagan holda, agar tezlik kamaysa-oldinga, agar tezlik ortsa orqaga og‘adilar.

b) Tez chopib borayotgan ot birdaniga to‘xtasa, egarda o‘tirgan chavandoz inertsia qonuniga asosan o‘z harakatini davom ettirib otning boshidan oshib ketadi. Agar ot o‘rnidan birdaniga tez chopsa chavandoz orqaga qarab harakatlanib yiqilib tushadi.

v) Avtobusning o‘rnidan tez keskin tezlik bilan o‘rnidan siljishi, qo‘qqisdan to‘xtashi, chap va o‘ngga burilganda undagi yo‘lovchilarning avvalgi holatidan u yoki bu tomonga og‘ishlari kuzatiladi.

3-Guruh.Engineering-muhandislar guruhi.

Avtomobil, avtobus, poezdda hamda samolyotda ketayotgan, passajirlarning xavfsizligini saqlash maqsadida, transport turlari xavfsizlik kamarlari bilan ta’minlanadi.

4-Guruh.Art-tasviriy san’atchilar guruhi jarayonning tasvirini chizadilar.

5-Guruh.Mathematics-matematiklar guruhi bo‘lib jarayonning quyidagi formulasini yozadilar.

$$V = 0 \text{ km/soat}$$

$$V = 60 \text{ km/soat}$$

Yuqoridagi guruhlarda ishlab chiqilgan fikr-mulohozolardan kelib chiqib, ushbu maqolada, Oliy ta’lim talabalariga zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan biri bo‘lgan STEAM texnologiyasi asosida fan, ta’lim, ishlab chiqarish uzviylikini hisobga olib fizika fani mazmun-mohiyatini fan, texnologiya, muxandislik san'at va matematika fanlari integratsiyasini hisobga olib, faoliyatli yondoshuv - kasbga yo‘naltirish -asosida, ya’ni kelgusida egallanadigan kasblari uchun yaxlit, tizimlashtirilgan bilimlar berishning pedagogik asoslari ishlab chiqilgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1.Vivian de Landscher.The concept of “minimum competence”. // Prospects, 1988.No.1

2.Всемирная декларация о высшем образовании для XXI века: Подходы и практические меры//Всемирная конференция ЮНЕСКО по высшему образованию, Париж,1998.

3.Система межпредметных связей по предметам естественно-математического цикла. Сборник научных трудов НИИСиМО. Москва 1981г.

4.Khodjamberdiyev M.S.Didaktik baases of providing holistic, systematized knowledge on the basis of science.Jornal of ethics and diversity in international communication.2022-06-01. Volume-2, ISSUE-5

5.Xodjamberdiyev M.S. Fanlararo o‘zaro boqlanish tizimlashtirilgan, yaxlit bilim berishning didaktik asosi sifatida.Obrazovaniya i nauka v XXI veke. №A3-20220621-6, 2022g. s.293-297.